

ALLYUZIV NOMLAR VA ULARNING TASNIFI

Dildora AMIROVA,

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti magistranti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15878070>

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot ishimizda allyuziya hodisasi, allyuziv nomlar va ularning tasnifi haqida so‘z yuritdik. Badiiy matnning tushunilishi va uning mazmun-mohiyatiini anglab yetishda allyuziv birliklarning ahamiyati haqida to‘xtalib o‘tdik.

Kalit so‘zlar: *allyuziya, badiiy matn, madaniy-semiotik maydon, allyuziv antroponim, allyuziv toponim, allyuziv zoonim, allyuziv bibliionim, onomastik birlik.*

Bugungi kunga kelib badiiy matn tadqiqiga tilshunoslikning yangi yo‘nalishlari hisoblangan lingvopoetika, lingvomadaniyatshunoslik va matn lingvistikasi kabilarning asosiy izlanish obyekti sifatida e‘tibor kuchaymoqda. Ushbu tadqiqot va izlanishlar natijasi tilshunoslikka allyuziya hodisasi va allyuziv nomlarning kirib kelishiga sabab bo‘ldi.

Tarixiy voqealar, mashhur asarlar, diniy, mifologik rivoyatlar va shu kabi keng ommaga ma‘lum bo‘lgan narsalarga ishora qilish yoki ulardagi turg‘un tushunchalarni badiiy matnga olib kirish [8.124] usuliga allyuziya deyiladi. Adabiyotshunoslik terminlari lug‘atida esa allyuziya atamasiga quyidagicha ta‘rif berilgan: “Allyuziya (lot. *allusio* – ishora, hazil) – barchaga tanish deb hisoblangan real siyosiy, maishiy, tarixiy yoki adabiy faktga ishora qilishga asoslangan stilistik usul. Mohiyatan sharq mumtoz she‘riyatida keng qo‘llanilgan talmeh san‘atiga yaqin keladi. Farqli jihati shuki, talmehda ko‘proq mashhur tarixiy va badiiy faktlarga ishora qilinsa, allyuziyada ijodkor o‘z zamonasidagi siyosiy, maishiy yoki badiiy faktlarga ishora qilishi ham mumkin. Ya‘ni allyuziyada ishora obyektining doirasi kengroq” [4.27]. Allyuziya hodisasining asosiy xususiyatlaridan biri o‘zida madaniy-tarixiy ma‘lumotlarni saqlashidadir. Mazkur hodisani yuzaga keltiruvchi allyuziv nomlar o‘quvchilar ongida assotsiativ aloqalarni yangilash barobarida implitsit matnlar bilan qo‘shimcha semantik qatlamni hosil qiladi.

D.Xudoyberganova allyuziv nomni shunday ta‘riflaydi: “Allyuziv nom – allyuziv matnda allyuziya ko‘rsatkichi vazifasida keluvchi onomastik birlik, assotsiativ tarzda idrok qilinuvchi pretsedent matnning tarkibiy qismi; ikki madaniy-semiotik maydonni tutashtiruvchi vosita” [6.9]. Allyuziv nomlar muallifning to‘plagan bilimlarini, shuningdek, badiiy-estetik mahorati va til xususiyatlarining o‘ziga xosliklarini ham namoyon etadi.

Allyuziya hodisasi bilan bog‘liq bir qancha lug‘aviy birliklar lingvistik soha va yo‘nalishlarga kirib kelishi zamonaviy tilshunoslik terminlarining ham boyishiga

xizmat qilmoqda. Masalan, allyuziv antroponim, allyuziv kosmonim, allyuziv matn, allyuziv nom, allyuziv toponim, allyuziv zoonim, allyuziya denotati, allyuziya ko‘rsatkichi, allyuziya manbasi [7.9-11] va boshqalar.

Allyuziv nomlar bilan bog‘liq tasniflar haqida manbalarda to‘liq tizimlashtirilgan ma’lumotlar berilgan. Biroq ularning ba’zi jihatlarini hisobga olgan holda ularni tasniflash mumkin. Allyuziv nomlarni tasniflashda ular qaysi kategoriyalarni ifodalab kelishiga qarab bir necha turlarga ajratish mumkin. Masalan, allyuziv antroponim, allyuziv toponim, allyuziv zoonim, allyuziv biblionim va shu kabilar.



1-rasm. Allyuziv nomlar tasnifi.

“Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati”da allyuziv antroponimlarga shunday ta’rif beriladi: “Allyuziv antroponim – allyuziv matnda allyuziya ko‘rsatkichi vazifasida keluvchi antroponim, allyuziv nomning bir turi” [7.9]. Allyuziv antroponimlar badiiy matnda eng ko‘p qo‘llaniladigan allyuziv figuralardan biridir.

Ulug‘bek Hamdam “Vatan desam...” she’rida Amir Temur va Zahiriddin Muhammad Boburlarning (ona) Vatan bilan doimo birga tilga olinishi ta’kidlaydi. Alisher Navoiydek ulug‘ zotlarning yurtimizda yana tug‘ilishiga umid ko‘zlari bilan boqadi:

Vatan desam, tilimga

Temur-u Bobur kelar.

Moziylarni uyg‘otib

Do‘mbira, tanbur kelar!

Vatan desam, yuragim

Navolarga to‘lgaydur.

Niyatni yaxshi qilsak,

Navoiy tug‘ilgaydur! [1.50]

“Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati”da allyuziv toponimlarga shunday ta‘rif beriladi: “Allyuziv toponim – allyuziv matnda allyuziya ko‘rsatkichi vazifasida keluvchi toponim, allyuziv nomning bir turi” [7.9].

Abdulla Oripov “Genetika” she‘rida Panipat poetonimidan ajdodlar xotirasi avlodlar qonida kezib yuradi, degan fikrni badiiy tarzda ifodalashda foydalangan [5.81]. Panipat va Bobur nomlarining birga kelishi o‘quvchining ko‘z oldida jang sahnalarning namoyon bo‘lishiga yanayam ko‘proq zamin yaratadi:

Tunlar qulog‘imga chalinar elas

Tulporlar kishnashi, otlar gurrosi.

Balki Muqanna bu – tinib-tinchimas,

Balki **Panipatda** Bobur urhosi. [3.220]

“Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati”da allyuziv zoonimlarga shunday ta‘rif beriladi: “Allyuziv zoonim – allyuziv matnda allyuziya ko‘rsatkichi vazifasida keluvchi zoonim, allyuziv nomning bir turi” [7.9].

Ulug‘bek Hamdam “Qaqnus” she‘rida qaqnus qushini timsol darajasiga ko‘taradi. Uni yangi hayot, umid va kelajak timsoli sifatida ifodalaydi:

Olov yonib kul bo‘ldi shu kun,

El boqardi qo‘lida fonus –

Axir, erta yashamoq uchun

Unga kerak edi bir **Qaqnus!**.. [1.237]

Allyuziv nomlarning yana bir turi allyuziv bibliionimlar haqida lug‘atlarda ta‘rif berilmagan bo‘lsa-da, ularga namunalar uchraganligi sababli mustaqil kategoriya sifatida kiritishga qaror qildik. Shartli ravishda allyuziv bibliionimlarga allyuziv matnda allyuziya ko‘rsatkichi vazifasida keluvchi bibliionim, allyuziv nomning bir turi, deb ta‘rif berish mumkin.

Oydin Hojiyeva “Oybek” she‘rida na‘matakni fotonim sifatida emas, Oybekning shu nomdagi she‘riga ishora sifatida qo‘llaydi:

Bahor yomg‘irlari tuqqan kamalak

Oybek qalamiga tutashgan yoydek.

Qizlar adirlarda tersa gulbargak,

Na'matak gul bo'lib chorlaydi Oybek. [2.90]

Yuqorida keltirilgan misollar orqali shuni ta'kidlash mumkinki, allyuziv nomlarni kategoriyalarga ajratgan holda tadqiq qilish ularning tahlilini yanayam osonlashtiradi. Allyuziv nomlarni tasniflash, ularni chuqur tahlil qilish adabiy matnning mazmuniy qatlamlarini ochish, yozuvchining intellektual va estetik niyatini anglash, o'quvchining intertekstual tafakkurini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Shu sababdan ular zamonaviy lingvopoetik tadqiqotlarda dolzarb tahlil obyekti sifatida.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hamdam Ulug'bek. Eski dunyo va yangi men: saylanma. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.
2. Hojiyeva Oydin. Shom shu'lalari: saylanma. – Toshkent: Sharq, 2010.
3. Oripov Abdulla. Tanlangan asarlar. 1-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2000.
4. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013.
5. Xudoyberganova D., Andaniyazova D. O'zbek tili poetonimlarining izohli lug'ati. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2016.
6. Xudoyberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug'ati. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015.
7. Xudoyberganova D. Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: Bookmany print, 2024.
8. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent: Fan, 2008.
9. Omanova, M. (2024). Importance of voice in expressive reading. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 12(1), 125-128.
10. Dilafruz, Kalandarova. "Issues of Uzbek Folklore and its Research in Germany." *Journal of Positive School Psychology* 6.9 (2022): 4395-4398.
11. Kadirova M.H. "The need for improving the methodology of teaching folklore in distance learning" Lecturer, Department of Uzbek language and literature of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Uzbekistan, <https://inlibrary.uz/index.php/crjps/article/view/17610>
12. O'RAZBAYEVA Mahbuba. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. "Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an'anasi" mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman materiallari. 2024-yil 25-yanvar, 28-32-betlar. https://oriens.uz/media/conferencearticles/5_ORAZBAYEVA_Mahbuba_28-32.pdf.
13. Burkhanova, F. "The Wisdom In The Works Of Alisher Navoi." *Turkish Journal of Physiotherapy and Rehabilitation* 32.3: 32467-32472.
14. Atabayeva G.F. The sign content of "Ffu" novel // *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, USA. 2022. – P.139-142. (Impact Factor - 8.0).